

QISHLOQ XO‘JALIGI TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Meliyeva Nargizaxon Baxodirovna

Renessans Universiteti Filologiya va tarix fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi.

nargizmeliyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21883986>

Annotatsiya: Ushbu maqola qishloq xo‘jaligi terminologiyasini etimologik tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu sohadagi atamalarining murakkab kelib chiqishi va semantik rivojlanishi bilan bog‘liq holida yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Bu terminologik tizimning evolyutsiyasi tendensiyalarini aniqlash uchun ularning tarixiy manbalarini, shakllanish qonuniyatlarini va morfologik, fonetik va semantik xususiyatlarini tushunish muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi terminologiyasi, etimologik tahlil, turkiy qatlam, til ta’sirlari, ma’no rivojlanishi, madaniy davomiylik, o‘zbek tili.

Qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik tahlili tadqiqotchilardan alohida yondashuvni talab qiladi. Bu sohaning terminlarini o‘rganishda ularning kelib chiqishi, shakllanishi hamda ma’no qonuniyatlari diqqatga sazovordir. Terminologiyaning tarixi turli tillar – qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va rus hamda boshqa g‘arb tillari ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, bu murakkab jarayonlarning to‘liq tushunilishi zamonaviy qishloq xo‘jaligi mazmuni tushunchasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

1. Etimologik tahlilning ahamiyati

Etimologik tahlil nafaqat terminlarning tarixiy manbasini aniqlash, balki ularning shakllanish qonuniyatlarini, morfologik, fonetik va semantik xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi. Terminologiya tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash orqali, yangi jarayonlarning qanday namoyon bo‘layotganini, so‘zlar orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni va ma’no kuchlarining qanday o‘zgarishini tushunish mumkin.

2. Etimologik qatlamlar va ularning tarkibiy xususiyatlari

Terminologiyada turli tillar ta’siri ostida shakllangan chet el manbalari ayniqsa qishloq xo‘jaligi sohasining turli jihatlarida namoyon bo‘ladi. Har bir til o‘z taraqqiyot tarixi, madaniy-iqtisodiy aloqalari va tilining qator xususiyatlari bilan bu sohaning terminologiyasini boyitadi:

Turkiy qatlam

Bu qatlamda xalqning qadimiy dehqonchilik madaniyati aks etadi. Misol uchun, bug‘doy, arpa, ekin, o‘roq va ketmon kabi terminlar qadimgi turkiy tildagi so‘zlardan iborat bo‘lib, ularning shakl va ma’nosi vaqt o‘tgan sari deyarli o‘zgartirilmasdan saqlab qolingan. Bu holat madaniyatning davomiyligini ko‘rsatadi.

Fors-tojik qatlam

Fors-tojik tillari ta’siri qishloq xo‘jaligi soha terminlariga ularning madaniy va iqtisodiy aloqalarining natijasi sifatida o‘z effektasini kiritadi. *Paxta, sholi, bog‘, poliz va zamin* kabi terminlar shu qatlamda juda keng tarqalgan. Bu terminlar fors tilidagi so‘zlar asosida shakllangan bo‘lib, ularning semantik toifalari dehqonchilikning turli jarayonlari, shudgorlash, sug‘orish va hududlarning o‘zaro farqlanishini aks etadi.

Arab qatlami

Arab tilidan o'zlashgan terminlar *hosil, mahsulot, foyda va dehqon* kabi so'zlar orqali ifoda etiladi. Arabcha manbalari orqali kelib chiqqan bu terminlar iqtisodiy faoliyatlar, ishlab chiqarish jarayonlari va iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi. Bu qatlam qishloq xo'jaligi obektlarining iqtisodiy jihatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Rus qatlami

Rus tili orqali o'zlashgan terminlar, ayniqsa, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari va mexanizasiya jarayonlari bilan bog'liq tushunchalarda qo'llaniladi. *Agronom, traktor, kombayn va mineral* kabi terminlar faqat texnika elementlarini emas, balki ilmiy-texnik taraqqiyot, xalqaro aloqalar va innovasiyalarning aks sotuvida namoyon bo'lgan yangi o'lchov birliklaridir.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi terminologiyasida rus tili va xalqaro terminlarning faol qo'llanishi sohaning ilmiy-texnik taraqqiyoti, xalqaro aloqalarning kengayishi bilan bog'liq. Bu terminlar qishloq xo'jaligining zamonaviy yo'nalishlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur aspektlar birgalikda qishloq xo'jaligi terminologiyasining boyligi va uning dinamik rivojlanishini aks etadi. Terminlarning turli tillar orqali o'zlashganligi va ularning o'zaro ta'siri ularni faqat lingvistik, balki madaniy, tarixi-iqtisodiy va texnologiyaviy jihatdan ham muhim qiladi.

Qishloq xo'jaligi terminlarining etimologik tahlili nafaqat ularning kelib chiqishini aniqlash, balki terminlarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish, terminologik tizimning rivojlanish tendensiyalarini belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Avazov N. O'zbek tilida dehqonchilik terminlarining lingvokulturologik xususiyatlari // Til va adabiyot ta'limi. – 2017. – №7. – B. 74-78.
2. Abduraimova M. O'zbek terminologiyasi rivojining asosiy tendensiyalari. – Toshkent: Fan, 2018. – 176 b.
3. Abdurahmonova N. Tilning lingvokulturologik o'rganish prinsiplari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2016. – №5. – B. 88-92.
4. Abdusaidov A. Qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladigan arabcha o'zlashmalar // Til va adabiyot ta'limi. – 2018. – №5. – B. 28-30.
5. Arnold I.V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazыka. – Moskva: Flinta, 2012. – 376 s.